

HUDUDIY SANOATNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA TEXNOPARK VA KLASSTER TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Atashayxov Tohir Abduvohid o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 2 kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18473691>

Hududiy sanoat salohiyatini yanada oshirishda O'zbekistonda texnoparklar, kichik sanoat zonalari va hududiy klasterlar muhim iqtisodiy mexanizm sifatida rivojlanmoqda. 2024 yil holatiga ko'ra, respublika bo'yicha 20 dan ortiq texnopark faoliyat yuritib, ularda 1 500 ga yaqin sanoat va innovatsion korxonalar joylashgan.

Ushbu korxonalar tomonidan yiliga qariyb 45 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 60 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilgan. Texnoparklar asosan axborot texnologiyalari, elektrotexnika, mashinasozlik va farmatsevtika yo'nalishlariga ixtisoslashgan bo'lib, ayrim hududlarda yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 25–30 foizga yetgan. Kichik sanoat zonalari hududlarda sanoatni jadallashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 400 dan ortiq kichik sanoat zonalari mavjud bo'lib, ularda 15 mingdan ziyod kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu zonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hududiy sanoat hajmining o'rtacha 35 foizini tashkil etadi.

Masalan, Toshkent viloyatidagi kichik sanoat zonalarida yiliga 8 trln so'mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilib, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushi 20 foizdan oshgan.

Hududiy klasterlar faoliyati sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Respublikada 100 dan ortiq paxta-to'qimachilik, agrosanoat va chorvachilik klasterlari tashkil etilgan. 2017 yilda paxta xomashyosini qayta ishlash darajasi 40 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 75 foizga yetdi. Natijada tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksporti 8 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Masalan, Buxoro viloyatidagi to'qimachilik klasterlarida 50 mingdan ortiq aholi doimiy ish bilan ta'minlangan.

Texnoparklar, kichik sanoat zonalari va klasterlarni rivojlantirish doirasida so'nggi besh yil ichida davlat va xususiy sektor tomonidan 12 mlrd AQSh dollariga yaqin investitsiyalar yo'naltirilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, elektr ta'minoti va logistika infratuzilmasi yaxshilanib, hududiy sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvati o'rtacha 20–25 foizga oshgan. Shu bilan birga, hududlarda sanoat mahsulotlari tannarxi pasayib, raqobatbardoshlik darajasi sezilarli darajada kuchaygan.

Hududiy sanoat salohiyatini oshirishda texnoparklar va kichik sanoat zonalarining hududlar kesimidagi notekis rivojlanishini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida so'nggi uch yil davomida yangi tashkil etilgan texnopark va sanoat zonalari soni 2 barobarga oshib, ushbu hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 18–20 foizga o'sdi. Bu hududlarda asosan qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va energiya tejankor texnologiyalar yo'nalishlari ustuvor hisoblanmoqda.

Hududiy klasterlar faoliyatini takomillashtirish doirasida koonepatsiya aloqalarini kengaytirish muhim natijalar bermoqda. Bugungi kunda klasterlar tarkibida 5 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari, 2 mingga yaqin qayta ishlash va servis korxonalari faoliyat yuritmoqda.

Ularning o'zaro integratsiyasi natijasida xomashyoni yetkazib berishdan tortib, tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan yagona qiymat zanjiri shakllantirilgan. Masalan, Andijon viloyatidagi agrosanoat klasterlarida meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash darajasi 60 foizga yetkazilib, yiliga 300 mln AQSh dollaridan ortiq eksport hajmi ta'minlanmoqda.

Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash texnoparklar samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Texnopark rezidentlariga soliq va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi so'nggi besh yilda 1,8 barobarga oshdi. Natijada, 2020–2024 yillar davomida texnoparklar doirasida 500 dan ortiq yangi texnologik mahsulot va ishlanmalar joriy etilib, ularning 30 foizi ichki va tashqi bozorlarga muvaffaqiyatli olib chiqildi.

Hududiy sanoat salohiyatini mustahkamlashda logistika va transport infratuzilmasining rivoji ham muhim o'rin tutadi. Kichik sanoat zonalari atrofida tashkil etilgan 25 dan ortiq logistika markazlari orqali mahsulotlarni saqlash va tashish xarajatlari o'rtacha 15 foizga qisqardi. Bu esa hududiy korxonalar mahsulotlarining narx jihatdan raqobatbardoshligini oshirdi va eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari texnoparklar va klasterlar faoliyatiga faol joriy etilmoqda. Bugungi kunda texnopark rezidentlarining 70 foizdan ortig'i ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli boshqaruv, avtomatlashtirish va "aqli ishlab chiqarish" texnologiyalaridan foydalanmoqda. Bu holat mehnat unumdorligini o'rtacha 25 foizga oshirib, mahsulot sifati barqarorligini ta'minlamoqda. Shu tariqa, texnoparklar, kichik sanoat zonalari va hududiy klasterlar faoliyatini uzluksiz takomillashtirish hududlarning sanoat salohiyatini barqaror oshirishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Hududiy sanoat salohiyatini oshirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu borad tijorat banklari va xalqaro moliya institutlari ishtiroki kengayib bormoqda. So'nggi yillarda texnoparklar va kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarni moliyalashtirish uchun 6 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.

Ushbu kreditlar asosan zamonaviy uskunarlar xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, natijada korxonalarning texnologik yangilanish darajasi sezilarli oshdi. Hududlar kesimida sanoat ixtisoslashuvini chuqurlashtirish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Masalan, Navoiy viloyatida kimyo va metallurgiya sanoati rivojlangan bo'lsa, Namangan viloyatida to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ixtisoslashuv asosida tashkil etilgan hududiy klasterlar sanoat tarmoqlari o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini shakllantirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda. Natijada ayrim hududlarda sanoat mahsulotlari eksporti yiliga 10–15 foiz sur'atlarda o'smoqda.

Kichik sanoat zonalarida yer va bino-inshootlardan oqilona foydalanish ham hududiy sanoat salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bo'sh turgan ishlab chiqarish maydonlarining tadbirkorlarga uzoq muddatli ijara asosida berilishi natijasida so'nggi uch yil ichida 3 mingdan ortiq yangi loyiha ishga tushirildi. Ushbu loyihalar orqali asosan import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilib, ichki bozorda mahalliy mahsulotlar ulushi sezilarli darajada oshdi.

Hududiy klasterlar doirasida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish ham muhim natijalar bermoqda. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda klaster ehtiyojlariga mos yangi texnologiyalar va mahsulotlar ishlab chiqilmoqda.

Natijada, so'nggi yillarda klasterlar tomonidan joriy etilgan innovatsion yechimlar hisobiga xomashyo sarfi o'rtacha 12–15 foizga qisqarib, mahsulot tannarxi pasaydi. Hududiy sanoat salohiyatini oshirish jarayonida ekologik barqarorlik masalalari ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnoparklar va sanoat zonalarida energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish natijasida elektr energiyasi sarfi o'rtacha 20 foizga qisqardi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgan loyihalar soni ortib, ayrim hududlarda sanoat chiqindilarining 30 foizgacha qismi qayta foydalanishga yo'naltirilmoqda.

Hududlarda sanoatni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash ham muhim ijtimoiy natija sifatida namoyon bo'lmoqda. Texnoparklar, kichik sanoat zonalar va klasterlar doirasida yaratilayotgan ish o'rinlarining 60 foizdan ortig'i yoshlarga to'g'ri kelmoqda. Bu esa hududlarda daromadlar o'sishi va ichki iste'mol bozorining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hududiy sanoat salohiyatini oshirish jarayonida eksport salohiyatini kengaytirish masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida qoralmoqda.

Texnoparklar va hududiy klasterlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi natijasida eksport qiluvchi korxonalar soni ortib bormoqda. Xususan, so'nggi to'rt yil davomida texnopark rezidentlari tomonidan eksport qilinayotgan mahsulotlar nomenklaturasi 2 barobarga kengayib, eksport geografiyasi 50 dan ortiq davlatni qamrab oldi.

Ayrim hududlarda sanoat mahsulotlari eksportining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35–40 foizga yetgan.

Hududiy sanoatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish ham muhim samara bermoqda. Kichik sanoat zonalarida infratuzilma obyektlari — yo'llar, elektr tarmoqlari, suv va gaz ta'minoti tizimlari davlat mablag'lari hisobidan barpo etilib, ishlab chiqarish binolari va uskunalar xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirilmoqda. Ushbu yondashuv asosida 2021–2024 yillar davomida 200 dan ortiq sanoat loyihalari amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 3 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Hududiy klasterlar doirasida mahalliy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish sanoat barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Avval import hisobiga qoplanib kelinayotgan ehtiyot qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlarning mahalliy ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Natijada, ayrim tarmoqlarda import hajmi 15–20 foizga qisqarib, valyuta tejalishi ta'minlandi. Masalan, mashinasozlik yo'nalishidagi klasterlarda mahalliy lashtirish darajasi 2020 yildagi 45 foizdan 2024 yilda 70 foizga yetdi.

Kichik sanoat zonalarida startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash ham hududiy sanoat salohiyatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli ijara shartlari, grantlar va maslahat xizmatlari yo'lga qo'yilishi natijasida minglab innovatsion loyihalar ishlab chiqarish bosqichiga olib chiqildi. Ushbu startaplarning katta qismi qayta tiklanuvchi energiya, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, qisqa muddatda barqaror faoliyat yurituvchi korxonalarga aylangan.

Hududiy sanoat rivojida ichki talabni qondirish bilan bir qatorda, tashqi bozorlarga moslashuvchanlikni oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnopark va klaster korxonalari tomonidan xalqaro ko'rgazmalar va savdo yarmarkalarida faol ishtirok etish orqali yangi hamkorlik aloqalari o'rnatilmoqda. Natijada, hududiy sanoat subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi faolligi ortib, uzoq muddatli eksport shartnomalari soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Hududiy sanoat salohiyatini oshirish jarayonida boshqaruv tizimlarini takomillashtirish ham muhim omil bo'lib qolmoqda. Texnoparklar va klasterlarda loyiha boshqaruvi, ishlab chiqarishni rejalashtirish va resurslardan foydalanishni optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy menejment usullari joriy etilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish intizomi va samaradorligini oshirib, hududiy sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda hududiy sanoat salohiyatini oshirish jarayonida texnoparklar, kichik sanoat zonalari va hududiy klasterlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida shakllanmoqda. Ularning faoliyati natijasida hududlarda sanoat ishlab chiqarishi hajmi barqaror oshib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda hamda iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasi ta'minlanmoqda. Texnoparklar innovatsion mahsulotlar va yuqori texnologiyalarni joriy etishda yetakchi bo'lsa, kichik sanoat zonalari tadbirkorlikni kengaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Hududiy klasterlar orqali xomashyoni chuqur qayta ishlash, qiymat zanjirlarini shakllantirish va eksportbop tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga erishilmoqda. Infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish va inson kapitalini rivojlantirish ushbu tuzilmalar samaradorligini yanada kuchaytirmoqda. Natijada hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovut qisqarib, sanoatning barqaror va uzoq muddatli o'sishi uchun mustahkam asos yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Hududiy iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 256 b.
2. Granberg A.G. Osnovy regionalnoy ekonomiki. – Moskva: GU VShE, 2019. – 495 s.
3. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2008. – 592 p.
4. Rasulov N.M., Karimov B.S. Sanoat zonalari va klasterlar asosida hududlarni rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 198 b.
5. Tatarkin A.I., Romanova O.A. Regionalnaya promyshlennaya politika i mekhanizmy ee realizatsii. – Moskva: Nauka, 2018. – 312 s.